

ETNOGRAFIZMLAR VA ULARNING TILIMIZDA TUTGAN O'RNI

Xusanova Mahliyo Abdunazarovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18832882>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining etnomadaniy birliklari va ularning shakllanish jarayonlari, etnografizmlarning leksik qatlamdagi lingvomadaniy birlik sifatidagi o'rni haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Etnografiya, etnografizm, leksik birlik, lingvomadaniy, lakuna, etnonim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этнокультурные единицы узбекского языка и процессы их формирования, а также роль этнографических текстов как лингвокультурных единиц в лексическом слое.

Ключевые слова: этнография, этнографический текст, лексическая единица, лингвокультурный, лакуна, этноним

Abstract. This article discusses the ethnocultural units of the Uzbek language and the processes of their formation, the role of ethnographisms as linguocultural units in the lexical layer.

Keywords: Ethnography, ethnographism, lexical unit, linguocultural, lacuna, ethnonym.

Qadimda insonlar xalq sifatida shakllanishida bir qancha yo'llarni bosib o'tishga to'g'ri kelgan. Turli xildagi bosqinlar, ko'chishlar va qabul qilingan qonunlar asosida ularning turmush tarzi, madaniyati shakllanib, o'zgarib bordi. O'zbek xalqi etnomadaniy muhitining shakllanishi va rivojida Surxon vohasi etnografiyasi, folklori va dialektologiyasining o'rni beqiyos.

Buni so'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi hamda xaqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e'tiroflarda ham ko'rish mumkin. Etnografiyaga oid bilimlar qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lsada, lekin mustaqil fan sifatida XIX asrning o'rtalarida shakllanib bo'ldi.

O'zbek tilining barcha qatlamlari qatori leksik qatlamlar ustida ham bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Etnografiya yunoncha "ethnos- xalq, grapho-yozaman" tarzida tarixning yordamchi fani sifatida xalqlarning urf-odatlarini, xo'jaligi va madaniyatini etnik birliklarning turli tiplari ularning kelib chiqishi, turmushi, tarixiy va madaniy munosabatlarini o'rganadigan ijtimoiy fan hisoblanadi [32].

Shu bilan birgalikda, Etnografizm - muayyan xalq yoki ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi etnik guruhlarining madaniyati, urf-odatlarini, etnik qadriyatlarini, turmush-tarzi, udum-an'analari, irim-sirimlari, turli marosimlari hamda diniy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan narsa yoki voqelikning nomlanishidir. Etnografiya fani boshqa fanlar singari o'ziga xos maxsus tadqiqot usullari va maxsus atamalarga ega. Uning uslubi muayyan dunyoqarash va nazariyalar bilan bog'liq bo'lib, o'z tadqiqotlarini ayrim fan sohalari jumladan, antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san'atshunoslik bilan aloqador holda amalga oshiradi. Mazkur fanlarning o'zaro bog'liqligi sababli keying yillarda qo'shaloq ilmiy sohalar yuzaga keldi.

Masalan, etnikantropologiya, paleantropologiya, etnolingvistika kabilar. Etnografiya xalqlarning turmush-tarzi, madaniyatlarini so'zlarini o'rganadigan fandır.

Demak, etnografiya o'rganadigan obyektlar "Etnografizmlar" deyiladi. Etnografizmlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish o'zbek tili leksik sathini Sistema sifatida o'rganish asosan 2000-yillarda kuzatildi.

Shuningdek, Surxondaryoning xilma-xil va boy etnomadaniy yarusini o'rganish hamda tadqiq etish jarayonida tarixchi va tilshunos olimlarimiz tomonidan qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Xususan, K.Shoniyofovning ma'lumotlari Surxondaryo hududida yashagan xalqlarning shakllanishiga oid manbalarni o'rganish jarayonida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot - mahalliy aholining etnik tarkibi, etnomadaniy aloqalari haqida ma'lum ilmiy ma'lumot berishga undaydi. Qadimgi Oks (Amudaryo) surxon (chig'onrud) va Sheroboddaryo o'zanlarida sak, massagetlar, xioniy, baxtar, toxar va boshqa xalqlar yashaganligini manbalarda qayd etishadi [117,120]. Surxondaryo tarixi keng sathda o'rganib kelayotgan olim Tursunov ham surxon xalqlarining etnomadaniy turmush tarzi haqida qimmatli fikrlar bildirgan. O'rganilgan tadqiqotlar mazkur hududda chig'atoy, miyon, qarshilik, turk, toqchi, barlos, qatag'oni, xataki, laqay, qo'ng'irot, juz, qovchin, do'rmon, nayman, mang'it, xitoy kabi urug'lar etnik tojiklar, arablar, hamda turkman millatiga mansub aholi shu bilan birga kelib Hindistonga borib taqaladigan lo'lilar istiqomat qilib kelayotganini ko'rsatadi. Bu urug'lar mushtarak etnomadaniy hayot tarzi va kundalik hayoti bilan ham farqlanadi [48,50].

Surxondaryo viloyatining turli mintaqalarida, xususan, cho'l qishloqlaridan tortib, tog'li ovullargacha bo'lgan hududda o'tkazilgan etnografik-dialektologik o'rganishlar davomida urug'-qabila, elat nomlari, ularning o'ziga xos fel-atvori, yashash tarzi, shug'ullanadigan kasbi bilan bog'liq etnografizmlarning ko'plab uchratasiz. Bundan ma'lum bo'ladiki, voha aholisining urug'-qabila munosabatlariga o'ziga xos yondashuvi hudud etnomadaniy hayotida alohida o'rin tutadi. Vohada bo'lib o'tadigan turli xalq o'yinlarida xususan, Kurash va Ko'pkari musobaqalarida polvon va chopag'onlarning qaysi urug'dan va ovuldan ekanligi surishtiriladi.

Har xil urug' va ovul vakillari bir-birining ori uchun o'zaro kurash tushishadi hamda ot choptirishadi. "Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi. Qishloq odamlari olchin, tog'chi, parito'p, qovchin, go'rkov, yuz..." deya atalmish urug'-aymoq nomlari, xarakteri, turmush tarzi hamda etnomadaniyatini aks ettiruvchi etnografik maqol va matallar, aytimlar talaygina.

Masalan, "Qotag'on ham qotti jov o'rtadan juz bo'masa. O'tinding yaxshisi Jonto'ra, xotindning yaxshisi qolmoqda. Uri bo'lmas xo'jani, so'kib bo'lmas xo'jan, xudo ursin xo'jani.

Jo'gining yeshshagini suv-lada pulini ol, Ot olsang Oboqlidan ol, xotin olsangiz Irg'alidan ol" kabi. Surxon vohasida etnomadaniy hayotining shakllanishi va rivojlanishida hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, bog'dorchilik va boshqa bir qator yashash manbai hisoblangan mashg'ulot turlari katta o'rin egallaydi. Bu mashg'ulotlarini aksariyat turlariga bugungi kunda hayot kechirish manbai sifatida emas, balki qadriyat sifatida qaralmoqda [12].

Misol tariqasida aytish mumkinki, o'tovlardan o'tgan asrning 70-80 yillarigacha voha chorvadorlari keng foydalanishgan hamda o'tovsozlik yaxshi rivojlangan. Uning qismlari bilan bog'liq holda o'sha davrda dialekt sifatida tasniflangan bo'lsada, hozir etnografizm hisoblanadi.

Bu kabi etnografizmlarga temirchilik, bo'yrachilik, gilamdo'zlik, kigiz to'qish, chirozchilik, quroqchilik, kashtachilik va boshqalar. Vohada chorvachilik alohida ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, voha etnomadaniy hayotini chorvasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Hududda chorvadorlar va ularning faoliyati bilan bog'liq ko'plab termin, atama, ibora va matallar, maqol hamda aytishuvlar, irim-sirim bilan bog'liq etnografizmlarni uchratamiz. Misol uchun, Hut keldi kadi-kadi sut keldi. Shishak soyding pishak soyding, qo'y so'yib mardlik qilding, kallapocha qo'yib nomardlik.

Tuvacha, to'la, shishak, axta, tusoq, ko'rg'o'za, quvushquloq, oqshoq, gadigo'y, kuyunki, gambik, to'qli, digil, sangach, chibich, shovuloq, jo'lpin, moltoyoq, dagar, to'shayil, qo'm,

bostirma, qo'shxona, qo'ra, qo'ton, chagana, moshiq, cho'panpichaq kabilar [49,50]. Tilda bu so'zlarning muqobili yo'q. Bular lakunalar hisoblanadi.

Lakuna so'zi alohidalik, ekvivalentiga ega emas degan ma'nolarni bildiradi [41].

Etnografizmlar orasida voha ichida o'tkaziladigan quda-andachilik, qo'shnicilik, qarindosh-urug'chilik odatlari alohida o'rin tutadi. Quda-andachilik bilan bog'liq rasm-rusumlar masalan, "bir-biriga ataldi", "quloqtishlalar", "belgi qilib qo'ymoq", "beshikkerti", "ro'mol bo'ylamoq", "la'li bermoq", "qoyillashmoq" kabi odatlar unashtirilganlik belgisi sifatida talqin qilingan. Katta bo'lgach yoshlar shu qadriyat bo'yicha turmush qurishgan [47,48]. O'zbek tilshunosligida dialektologik tadqiqotlar doirasida etnografizmlar qisman o'rganilgan va bu borada tadqiqotlar davom etmoqda. XX asrning boshlarida bir guruh tilshunos va tarixchi olimlar tomonidan etnodialektal va etnografik sohalarga oid qator izlanishlar olib borildi.

Xususan, V. Bortold, L. Oshanin, A. Borovkov, Polivanov, V. Reshetov kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o'zbek xalqining etnografiyasi, jonli so'zlashuv tili, urf-odatlar va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'zbek olimlari tomonidan etnografizmlar tadqiqotga oid ilk ishlar ko'zga tashlana boshladi. Hududiy etnografizmlarni yig'ish va ularni tavsiflash borasida o'sha davrda qator olimlarning xizmatlari ahamiyatli bo'ldi. Sh.Abdurahmonov, A.Ishayev, A.Shermatov, X. Doniyorov, F. Abdullayev va yana boshqa o'nlab olimlar o'z tadqiqotlarida mahalliy dialektlarni o'rganish asnosida etnografik leksemalarga ham ma'lum darajada murojaat qilganligidan guvoh bo'lamiz. Surxon shevalarini tadqiq etgan olim S. Rahimov o'z ilmiy ishida etnografik leksemalarni quyidagi oltita mavzuviy guruhga ajratadi: "qarindoshligini bildiruvchi, odam uzvini ifodalovchi, uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi, oziq-ovqatga oid so'zlar, chorvachilik va u bilan bog'liq bo'lgan so'zlar hamda etnografiyaga oid so'z va terminlar".

Ma'lumki o'zbek xalqi o'zining murakkab etnik tarkib, xilma-xil urf-odat va marosimlarida boyligi hamda sershevaligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi.

Tilshunos olim K. Marqayevning ma'lumotlariga ko'ra. "O'zbek xalqining millat bo'lib uyushishida ko'pgina etnik guruhlarining ishtirok etgani ma'lum. O'zbek millati etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Bu hol o'zbek tilining ko'p shevali til bo'lishiga ham asos bo'lgan. Bu shevalar O'zbekiston hududida va undan tashqarida yashovchi turli etnoslarning mahalliy tili. Etnonimlarni tadqiq qilish mana shu lahza va shevalar tarkibida va lisoniy xususiyatlari haqida yanada batafsilroq ma'lumot olishga ko'maklashadi". Etnografizmlar bevosita xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq. Folklorning asosiy negizni tashkil etuvchi, Alpomish, Kuntug'mish, Ravshan, Go'ro'g'li kabi dostonlar xalqning og'izdan og'izga o'tib kelayotgan merosi namunasi hisoblanadi. Folklorshunos olim M.Jo'rayev "Alpomish" dostonini o'zbek xalqining ko'hna marosimlarida, urf-odatlar va tabularining qomusi deb atadi" [13,137]. Bu birliklarni o'rganish maxsus tadqiqotlarni talab etishini ta'kidlaydi. Shu o'rinda B.O'rinboyning dostonlari etnografizmlarga bag'ishlangan ishi e'tiborlidir [14,52]. Etnografizmlarning lingvokultrologik tomonlariga e'tibor qaratish til va madaniyat uyg'unligi tekshirish xalq madaniyatining asl mohiyatini ochish imkonini beradi.

M.Jo'rayev dostonda uchragan marosim nomlarini qo'llanishiga ko'ra maishiy turmushda ijro o'rni ega bo'lgan eposda ham badiiy aks etgan va maishiy turmushda ijro o'rni unitilib, badiiy holatga ko'chgan marosimlar sifatida o'rganish kerakligini yozadi [12,138]. Qiziqarli tomoni shundaki, dostonlari ko'pgina etnografizmlar hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Biz o'rganayotgan doston variantlarida suyunchi, beshikkerti, to'qqiz tovoq, qiz ob qochdi, vakil, kampir o'ldi, it irillar, igna ko'rsatdi, oyna tutdi, qiz so'ylatar, yuz ochar kabi etnografizmlar uchraydi.

Bu kabi etnografizmlar qadimdan hozirgacha kundalik hayotimizda saqlanib qolganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, etnografizmlar milliy madaniyatimizning ko'zgusi hisoblanadi. Bu orqali xalqimizning udum-an'analari hamda barcha millat va elatlarning turmush tarzi, rasm-rusumlari o'ziga xos jihatlari tadqiq etilmoqda. Etnografizmlar milliy qadriyatlarimizning asosiy negizni tashkil qiladi va lingvokulturologiya va etnolinglistika sohalarining tadqiqot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiyev A. Alpomish dostoni tilning leksik, semantik va stilistik xususiyatlari – Nukus, 2007.
2. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2007.
3. Raxmanov B. Surxondaryo etnografizmlarining lingvomadaniy tadqiqi:
4. filol. f.f doktori (PhD) diss. – Termiz, 2024.B.132
5. Tursunov. S. Qobilov. E. Murtazov. B. Surxondaryo tarixi– Toshkent: 2004.
6. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: 2019.
7. Jabborov. I. O'zbek xalqimizning etnografiyasi – Toshkent: 1994.
8. Xudoyberganova. D. Lingvokulturologiya terminining qisqacha izohli lug'ati– Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.